



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashv Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zariqbayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI

Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi

TDIU tayanch doktranti

Email: @azizayuldoshova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida pensiya sug'urtasini amaliyotga joriy etishning zaruriyati va dolzarbligi ko'rib chiqilgan. Aholining qarishi, demografik o'zgarishlar va mavjud pensiya tizimining cheklangan imkoniyatlari milliy iqtisodiyotda nafaqa sug'urtasini rivojlantirishni muhim strategik vazifaga aylantirdi. Maqolada pensiya sug'urtasining nazariy asoslari, xorijiy tajriba va O'zbekiston sharoitida uni joriy etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida pensiya sug'urtasini rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: pensiya sug'urtasi, ijtimoiy himoya, nafaqa tizimi, demografik o'zgarishlar, sug'urta fondi, ixtiyoriy pensiya jamg'armasi, aktuar hisoblash, zararsizlantirish.

Abstract: This article examines the necessity and relevance of introducing pension insurance in the Republic of Uzbekistan. Population aging, demographic changes, and the limited capabilities of the existing pension system have made the development of pension insurance a critical strategic task for the national economy. The article analyzes the theoretical foundations of pension insurance, international experience, and the possibilities of implementing it in Uzbekistan. Based on the research findings, recommendations for the development of pension insurance have been developed.

Keywords: pension insurance, social protection, pension system, demographic changes, insurance fund, voluntary pension savings, actuarial calculation, risk mitigation.

Абстрактный: В данной статье рассматривается необходимость и актуальность внедрения пенсионного страхования в Республике Узбекистан. Старение населения, демографические изменения и ограниченные возможности существующей пенсионной системы сделали развитие пенсионного страхования важной стратегической задачей для национальной экономики. В статье проанализированы теоретические основы пенсионного страхования, зарубежный опыт и возможности его внедрения в условиях Узбекистана. По результатам исследования разработаны рекомендации по развитию пенсионного страхования.

Ключевые слова: пенсионное страхование, социальная защита, пенсионная система, демографические изменения, страховой фонд, добровольные пенсионные накопления, актуарный расчёт, нейтрализация рисков.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ko'p ustunli yondashuv asosida qurilgan. Bu tizimning muhim tarkibiy qismlaridan biri pensiya sug'urtasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti asosan davlat tizimi orqali amalga oshirilmoqda [1]. Biroq aholining tobora keksayishi, mehnatga layoqatli va nafaqa yoshidagi aholi nisbatining o'zgarishi mavjud tizimga jiddiy yuk solmoqda [2].

Pensiya sug'urtasi — bu sug'urtalanuvchi o'zi uchun yoki uchinchi shaxs foydasiga pensiya yoshiga etganda yoxud mehnat qobiliyatini yo'qotganda daromad olishni kafolatlovchi sug'urta munosabatlarining alohida turi [3]. Ushbu mexanizm orqali nafaqat davlat pensiya tizimidagi yuk engillashadi, balki fuqarolar uchun qo'shimcha ijtimoiy himoya manbai shakllanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mamlakatimizda demografik tendensiyalar va mehnat bozorida o'zgarishlar nafaqa tizimini takomillashtirish borasida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. 2030 yilga borib O'zbekistonda 60 yosh va undan katta aholining ulushi sezilarli darajada ortishi kutilmoqda [4], bu esa pensiya sug'urtasini amaliyotga joriy etishni zarur qilib qo'yadi.

Adabiyotlar tahlili. (Обзор литературы / Literature review).

Pensiya sug'urtasi masalalari jahon iqtisodiyot fani olimlarining diqqatini uzoq vaqtdan buyon jalb qilib kelmoqda. Nobel mukofoti sohibi P. Daymond pensiya tizimlarini tuzishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan [5]. Uning fikriga ko'ra, optimal pensiya tizimi uch ustunga — majburiy davlat pensiyasi, majburiy jamg'armaviy pensiya va ixtiyoriy sug'urta — asoslanishi lozim.

Jahon bankining "Qarib borayotgan jamiyatda ijtimoiy himoya" (1994) hisobotida [6] ko'p ustunli pensiya tizimi konsepsiyasi batafsil yoritilgan. Xususan, uchinchi ustun — ixtiyoriy pensiya sug'urtasi — aholini mustaqil moliyaviy rejalashtirishga rag'batlantirishning samarali vositasi sifatida tavsiya etilgan.

MDH mamlakatlari tajribasini o'rgangan rus olimi Ye. Machulskaya [7] Rossiya, Qozog'iston va Belarusda pensiya islohotlarini tahlil qilib, sug'urta prinsiplarini nafaqa tizimiga tatbiq etishning ijobiy natijalarini ko'rsatib bergan. Qozog'iston tajribasi, jumladan, 1998 yilda joriy etilgan jamg'armaviy pensiya tizimi [8] O'zbekiston uchun muhim dars berishi mumkin.

O'zbekistonda ijtimoiy sug'urta masalalari bo'yicha M. Ashrapov [9] va Sh. Mustafaqulov [10] kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarda mamlakatdagi ijtimoiy himoya tizimining zaif tomonlari va isloh qilish yo'llari ko'rsatilgan. Biroq pensiya sug'urtasini joriy etishning mexanizmlari va zaruriyati alohida tadqiqot ob'ekti sifatida hali to'liq o'rganilmagan.

Germaniya, Niderlandiya va Shvesiya kabi rivojlangan Yevropa davlatlarida pensiya sug'urtasi tizimi yuksak darajaga erishgan [11]. Bu mamlakatlarda aholining 60-70 foizi ixtiyoriy pensiya sug'urtasiga jalb etilgan bo'lib, nafaqa daromadining 30-40 foizi aynan ushbu manbadan keladi.

Tadqiqot usullari (Методы исследования / Research methods)

Ushbu tadqiqot jarayonida pensiya sug'urtasini amaliyotga joriy etishning zaruriyati va dolzarbligini asoslash uchun bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli orqali pensiya sug'urtasining nazariy asoslari hamda uning iqtisodiy mohiyati o'rganildi. Shuningdek, taqqoslash usuli yordamida rivojlangan davlatlar, xususan Germaniya, Niderlandiya va Shvesiya tajribasi O'zbekiston sharoiti bilan qiyosiy tahlil qilindi. Bu esa xorijiy amaliyotdan samarali jihatlarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda statistik tahlil usuli ham keng qo'llanilib, demografik ko'rsatkichlar, pensiya tizimi yuklamasi va iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida mavjud holat baholandi.

Bundan tashqari, mantiqiy umumlashtirish va ilmiy abstraksiya usullari orqali pensiya sug'urtasini rivojlantirish bo'yicha xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, induksiya va deduksiya usullari asosida alohida faktlardan umumiy xulosalarga kelindi hamda mavjud nazariy qarashlardan kelib chiqib amaliy takliflar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

O'zbekiston Respublikasida pensiya sug'urtasini joriy etishning zaruriyati bir qator omillar bilan belgilanadi.

Birinchi, demografik bosim.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda mamlakatda nafaqaxo'rlar soni 3,2 million nafardan ortiqni tashkil etdi [12]. Faol ishchi va nafaqaxo'r nisbati 3,8:1 darajasida bo'lib, rivojlangan mamlakatlarning 5:1 ko'rsatkichidan pastdir. Demograflar bashoraticha, 2040 yilga borib ushbu nisbat 2,9:1 ga tushishi kutilmoqda [13]. Bu davlat pensiya tizimiga moliyaviy yukni keskin oshiradi.

Ikkinchi, moliyaviy barqarorlik muammosi.

Davlat pensiya fondi xarajatlari yildan-yilga oshib bormoqda. 2022 yilda pensiya xarajatlari YaIMning 5,1 foizini tashkil etdi [14]. Jahon banki tavsiyalariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 4 foizdan oshmasligi maqsadga muvofiq [6]. Sug'urta prinsiplari asosida ishlovchi qo'shimcha pensiya tizimi bu yukni barqarorlashtirishga yordam beradi.

Uchinchi, rasmiylashtirilgan bandlik.

O'zbekistonda mehnat faoliyatini rasmiy ravishda amalga oshirmayotgan aholining ulushi yuqorilgicha qolmoqda. Ushbu toifa uchun davlat pensiya tizimi kam samarali. Ixtiyoriy pensiya sug'urtasi esa ularga ham nafaqa jamg'armasini shakllantirish imkonini beradi [9].

To'rtinchi, moliyaviy savodxonlikni oshirish.

Pensiya sug'urtasini tizimli joriy etish aholini uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga o'rgatadi. Bu nafaqat nafaqa ta'minotini, balki umumiy iqtisodiy madaniyatni ham rivojlantiradi [10].

Tahlil natijasida pensiya sug'urtasini O'zbekistonda joriy etishning quyidagi modelini tavsiya etish mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Pensiya sug'urtasini joriy etish modeli¹

Bosqich	Mazmun	Muddat
I bosqich	Qonunchilik bazasini yaratish	2025–2026 y.
II bosqich	Sug'urta kompaniyalarini lisenziyalash	2026–2027 y.
III bosqich	Ixtiyoriy sug'urtani joriy etish	2027–2028 y.
IV bosqich	Majburiy jamg'armaviy sug'urtaga o'tish	2029 y. va undan keyin

Xorijiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli pensiya sug'urtasi tizimini yaratish uchun quyidagi shartlar zarur: kuchli sug'urta nazorati organi, shaffof investisiya siyosati, soliq rag'batlantirishlari va aholini moliyaviy savodxonligi [11].

Qozog'iston tajribasini o'rganish ko'rsatadiki, jamg'armaviy pensiya tizimini joriy etish dastlab aholida ishonchsizlik uyg'otishi mumkin [8]. Shu bois, birinchi navbatda kichik va o'rta biznes vakillari va yuqori daromadli aholi orasida ixtiyoriy sug'urtani joriy etish samaraliroq yo'l hisoblanadi.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida pensiya sug'urtasini joriy etish nafaqat zarur, balki dolzarb masala ekanligi tasdiqlandi. Demografik bosim, davlat pensiya tizimidagi moliyaviy yuk va rasmiylashtirilgan bandlik muammolari kompleks echimni talab qilmoqda.

Maqolada taklif etilgan to'rt bosqichli joriy etish modeli O'zbekiston sharoitiga moslangan va xalqaro tajribaga tayangan. Bu model amalga oshirilsa, 2030 yilga borib pensiya sug'urtasi portfelining YaIMga nisbati 1,5–2 foizga etishi prognoz qilinmoqda.

Tavsiyalar: 1) Ixtiyoriy pensiya sug'urtasini tartibga soluvchi qonun loyihasini ishlab chiqish; 2) Sug'urta kompaniyalariga pensiya mahsulotlarini ishlab chiqishga ruxsat berish; 3) Pensiya sug'urtasiga yo'naltirilgan mablag'larga soliq imtiyozlari joriy etish; 4) Aholini moliyaviy savodxonlikka o'rgatish dasturini kengaytirish [1, 3, 11].

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

- O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolik pensiya ta'minoti to'g'risida» Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 1993. – 22 b.
- O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. Demografik ko'rsatkichlar 2023. – Toshkent: DSQR, 2023. – 145 b.
- Abdullaev A.M. Sug'urta iqtisodiyoti: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 312 b.
- BMT Aholi jamg'armasi. O'zbekistondagi demografik prognozlar 2025–2050. – Nyu-York: YuNFPA, 2022. – 67 b.
- Diamond P., Orszag P. Saving Social Security: A Balanced Approach. – Washington: Brookings Institution Press, 2004. – 248 p.
- World Bank. Averting the Old Age Crisis: Policies to Protect the Old and Promote Growth. – Washington: World Bank, 1994. – 402 p.
- Machulskaya Ye.Ye. Pravo socialnogo obespecheniya. – Moskva: Yurayt, 2019. – 441 s.
- Seytkali R.B. Pensionnaya sistema Kazaxstana: opit i perspektivi // Ekonomika i upravlenie. – 2021. – №3. – S. 45–52.
- Ashrapov M.M. Ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish yo'llari // Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar. – 2022. – №4. – B. 112–119.
- Mustafaqulov Sh.I. Pensiya tizimi islohotlari: moliyaviy barqarorlik masalalari // Moliya. – 2023. – №2. – B. 34–41.
- OECD. Pensions at a Glance 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 226 p.
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Byudjet ijrosi to'g'risida hisobot 2022. – Toshkent: Moliya vazirligi, 2023. – 98 b.
- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston 2030: strategik rivojlanish yo'lida. – Toshkent, 2022. – 203 b.
- IMF. Uzbekistan Article IV Consultation. – Washington: International Monetary Fund, 2023. – 89 p.
- Baratova Dinora Alisherovna. (2025). O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Insurance market of Uzbekistan, 2(6), 23–24. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/341

¹ Muallif tomonidan tuzilgan